

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

QURDOSH QAHRAMONOV – IBRATLI USTOZ

Gulasal Kazakova,

*Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi*

O‘zbek adabiyotida tanqidchilik va adabiyotshunoslikning buyuk darg‘alaridan biri Qurdosh Qahramonov o‘tkir fikr-mulohaza, teran falsafiy mushohada egasi sifatida shogirdlar e’tirofidadir. Hayotda, ishda, ijodda yuksak insoniylik mezonlariga tayangan, hamma bilan birdek samimiy muomalada bo‘luvchi, kamtarlik va hallollik ustoz Q.Qahramonovga xos fazilatlardan hisoblanadi. Bir necha yillar davomida minglab talabalarga saboq bergan, malakali mutaxassislar tayyorlashda katta jonbozlik ko‘rsatgan ulug‘ ustoz yarim asrlik umrini ta’lim va tarbiyaning yoshlar hayotiga mukammal kirib borishida tinimsiz izlanishda.

Ustozning “Ijod va e’tiqod” nomli kitobi taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist, publitsist, jamoat arbobi Abdusaid Ko‘chimov ijodining asosiy yo‘nalishlari talqiniga bag‘ishlanadi. Bu kitobni qo‘limga olarkanman, biron joyda tin olmasdan o‘qib tugatdim va go‘yo ustozning ma’ruzalarini qayta eshitib, ilmning ummon qadar bepoyon dengizida sayr qilgandek, butun vujudi quloqqa aylangan auditoriyaga qayta kirgan talabadek his qildim o‘zimni. Ha, bir paytlar ustoz Q.Qahramonov ma’ruza mashg‘ulotlarini guruhimizdagi barcha talabalar mana shunday iliqlik bilan qarshilar, ustoz aytgan ma’lumotlar ongu-shuurimizga bir o‘git kabi bitilardi. Oradan yillar o‘tdi, biz ham ustoz sanaldik, ammo Qurdosh Qahramonov kabi ulug‘ ustozga adabiyot, insoniyat har doim muhtoj ekan.

Kitobning birinchi bobi “Ko‘ngil mulkiga sayohat” deb nomlanib, bu qismda A.Ko‘chimovning rang-barang mavzudagi she’rlari tahlili, lirik qahramonning qaynoq tafti, ijodkorning hayotiy asosga ega munosabati qalamga olingan. “Ko‘zlarim qarog‘idasan”, “Muhabbat bog‘lari”, “Qor”, “Kuzgi osmon”, “Baland tog‘lar” nomli to‘plamlaridagi bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan turkum she’rlari tahlilga tortiladi. Qurdosh Qahramonov odatda shoirlar muayyan ijod yo‘lini bosib o‘tgach, yozganlariga tartib berishga, ularni nomlashga ramziy mazmun bag‘ishlab tabiat fasllariga mengzashini qayd etadi. Shuningdek, A.Ko‘chimovning “Qor” deb nomlangan to‘plami chop ettirilgan bo‘lsa, ijodining markaziy qismida yo‘l obrazining talqiniga duch kelishimizni ta’kidlaydi. XX asr she’riyatini ko‘zdan kechirarkanmiz, yo‘l poetik timsolining turli yillarda turlicha talqin etilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin: “Aksariyat shoirlar ijodida yo‘l ham hayot, ham ijod yo‘li sifatida keladi. Abdusaid Ko‘chimov she’rlari mohiyatida ham shoir qo‘llagan bu timsol yashab o‘tilayotgan umr o‘lchovi hamda ijod jarayonidagi izlanishlar yo‘li

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

sifatida talqin etilishini ko‘ramiz”¹. Yo‘l poetik obraz sifatida zohiriy va botiniy ma‘no ifodalashi, shoir hayot yo‘lining manzaralari qalamga olinganligini ta‘kidlab o‘tadi.

A.Ko‘chimovning istiqlolning dastlabki yillarida yozilgan Vatan mavzusidagi she‘rlarida “tinchlik”, “erk qo‘shig‘i”, “navqiron”, “jaranglar”, “jilvagar”, “kamalakdek tovlanish” kabi o‘xshatish-u sifatlashlar asosida poetik manzara yaratganligini, vatanparvarlik g‘oyalari ifodalanishida qo‘llanilgan tashbehtar she‘rlarining ohangdorligini, badiiyligini ta‘minlashga xizmat qilgan omillar ekanligini keltirib o‘tadi.

Ijodkor nafaqat she‘riyati, balki qissa va hikoyalari bilan ham kitobxonlarga mashhur bo‘lib, “Ijod va e‘tiqod” kitobining ikkinchi “Nasrnavislik mahorati” deb nomlangan bobida istiqlol yillari arafasida yozilgan “Boychechak”, “O‘g‘il”, “Oq kaptarlar oroli” nomli qissa va hikoyalari tahlilga tortiladi. Ushbu bobda Q.Qahramonovning adabiy-tanqidiy yo‘nalishdagi fikrlari ijodkor faoliyatini to‘laqonli aks ettirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Yozuvchi ijodining dastlabki qadamlari jurnalistlik va ijtimoiy hayotdagi faolligida, ijodining hayot bilan, davr o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqlikda ekanligiga e‘tibor qaratadi.

“Qayta tug‘ilgan bola”, “Oq kaptarlar oroli”, “Baland tog‘lar”, “Boychechak”, “Qochoq”, “Ishqiboz”, “O‘g‘il” nomli qissa va hikoyalarining bosh qahramonlari bolalar va o‘smirlar ekanligini qayd etarkan, A.Ko‘chimov ijodi yoshlarni ilm olishga, tabiatni, undagi har bir g‘iyohni asrashga, hayotda halol yashash va to‘g‘riso‘z bo‘lishga undashi bilan xarakterlidir. Ijodkor faoliyatidagi o‘ziga xoslik sharhlanarkan, bu bob orqali Qurdosh Qahramonovning bolalar adabiyoti va tanqidchilikdagi yuksak mahoratining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Asar bosh g‘oyasining umumbashariy masalalar bilan bevosita bog‘lanishidan tortib asar syujet va kompozitsiyasidagi mukammallik, obrazlar dunyoqarashini ochishda badiiy tasvir vositalaridan ijodkorning unumli foydalanishiga diqqatni qaratishi Q.Qahramonovning mukammal darajadagi tahlil malakasiga ega adabiyotshunos ekanligidan darak beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ijodkorlar haqida ularning hayoti aks ettirilgan, ijodi tahlil etilgan ilmiy, biografik kitoblar yozish an‘anasi biroz sus jarayonda Qurdosh Qahramonovning “Ijod va e‘tiqod” kitobi ayni o‘quvchi kutgan ijodiy manba hisoblanadi. “Adibning essenavislik mahorati” nomli kitobning 3-bobida A.Ko‘chimovning essenavislik yo‘nalishida olib borayotgan izlanishlari bayon etiladi. Bu bob zamonamizning yetuk va atoqli iste‘dod sohiblari siymolari Odil

¹ Qurdosh Qahramonov, F.Burhonova “Ijod va e‘tiqod”. T.: T.: Akademiya nashri. 2022. 7-bet.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, G‘afur G‘ulom, Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi buyuk darg‘alarining obrazlari o‘ziga xos shakl va ifodalarda, hayotiy lavhalarda, badiiylik va publitsistik ruhning ustuvorligida yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Adabiyotshunos Q. Qahramonov mazkur adabiy portretlar hozirgi essechilik yo‘nalishida yuzaga kelgan eng muhim yutuqlardan biri ekanligini qayd etadi.

Professor Qurdosh Qahramonov buyuk notiq. Uning ma‘ruzalarida mumtoz adabiyot noyob namunalaridan tortib, dunyo adabiyotshunosligining eng so‘nggi yutuqlarigacha tahlil kuzatiladi. Notiqlik va muntazam izlanishda bo‘lish ustozning hayot maslagiga aylana olgan. Shu boisdan talabalar bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalarini domlanning ilmiy rahbarligida yozishga kuchli rag‘bat sezadi. Ana shunday iste‘dodlardan bir qanchasi ustoz rahbarligida nomzodlik ishi va doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bormoqdalar.

Ustozni shu navqiron yoshi bilan chin yurakdan muborakbod etaman, mustahkam sog‘lik hamrohi bo‘lib, ilmiy-ijodiy faoliyatlarida kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilayman.